O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI YUQORI CHIRCHIQ TUMAN HOKIMINING

Q A R O R I

111900 Yangibozor qo‘rg‘oni, Mustaqillik ko‘chasi-78 uy

2022 - yil 9 - dekabr 422-10-145-Q/22 Yuqorichirchiq tuman hokimligi

Yuqori Chirchiq hududidagi transport vositalarini 2023 yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 y., 9-son 215-son), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 09 martdagi 125-sonli “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30 martdagi 272-sonli “Transport vositalarini majburiy tarzda texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, Yuqori Chirchiq tuman xududidagi transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish va uni o‘tkazishni ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman ichki ishlar bo‘limining yo’l xarakati xavfsizligi bo‘linmasi Yuqori Chirchiq hududidagi tegishli transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish ishlarini tashkillashtirsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 09 martdagi 125-sonli “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi asosan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari, normalariga muvofiqligi

tadbirkorlik sub’ektlari — yuridik shaxslar tomonidan majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi ta’minlansin.

3. Tumanda transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi belgilansin:

a) tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

b) ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

v) ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

g) tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

d) navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni DYHXX organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).3. Mazkur qarorning 2-bandi “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

Mazkur Nizomning 5-bandi «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta — 1 mart — 30 iyunda;

ikkinchi marta — 1 sentyabr — 31 oktyabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1 yanvar — 31 dekabrda o‘tkaziladi.

4. Korxona, tashkilot va muassasalardagi avtotransport vositalarini 2023 yilgi texnik ko‘rigini o‘tkazish bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Korxona, tashkilot va muassasalardagi avtotransport vositalarini 2023 yilgi texnik ko‘rigini o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Xudoyberganov va Toshkent viloyati hokimligining Yo‘lovchi transportining barcha turlari harakatini litsenziyalash va muvofiqlashtirish departamenti Yuqori Chirchiq tumani vakiliga:

2022 yil 1 fevralga qadar yo‘llarda harakat havfsizligini ta’minlash komissiyalari bilan hamkorlikda, yuridik shaxslar rahbarlarini jalb qilgan holda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikka tayyorlash hamda uni o‘tkazish chora-tadbirlarini ishlab chiqsin va amalga oshirilishi ustidan nazorat o‘rnatilsin;

transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish ishlarining samaradorligini oshirish maqsadida tuman ichki ishlar bo‘limi - “yo‘l harakati xavsizligi bo‘linmasi”, mudofaa ishlari bo‘yicha Yuqori Chirchiq tuman bo‘limi vakillari va yuridik shaxslarning muhandis-texnik hodimlaridan iborat ishchi guruhlar tuzilsin;

Tuman ichki ishlar bo‘limi “yul xarakati xavfsizligi bo‘linmasi” bilan birgalikda faoliyati tugatilgan, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar korxona va tashkilotlar tasarrufida bo‘lgan transport vositalarini, tirkamalarini, yarim tirkamalarini aniqlash hamda ularni belgilangan tartibda hisobdan chiqarish choralarini ko‘rsin;

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 4 noyabrdagi 482-sonli “O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish qoidalarini hamda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish havfsizligini ta’minlashga doir tadbirlarni tasdiqlash haqida”gi qarorlari (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plamlari, 2003 y., 21-son, 204-modda) talablari ijrosini ta’minlash, yo‘lovchilarga samarali transport xizmati hamda ularning havfsizligini ta’minlash maqsadida shahardagi barcha tijorat asosida yo‘lovchi tashish bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar tasarrufidagi ishlab chiqarilgan yili 10 yildan oshgan barcha turdagi avtobus va kichik avtobuslarlarning majburiy ko‘rigi Parkent tumnidagi “ Baxrom Avto Standart Oil ” diagnostika tarmog‘ida o‘tkazilishini tashkillashtirilsin.

8. Tuman ichki ishlar bo‘limining tegishli xizmatlari hodimlari jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikda jismoniy va yuridik shaxslarga qarashli bo‘lgan avtomototransport vositalarini to‘liq majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishini ta’minlasin.

9. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish javdaliga asosan avtobus va kichik avtobuslarni majburiy texnik ko‘rikka tayyorlash va taqdim etish yuridik shaxslar raxbarlari va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilsin.

10. O‘rnatilgan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tmagan (ishlab chiqarilgan yiliga 15 yildan oshgan avtobus) avtobus va kichik avtobuslardan foydalanish ta’qiqlansin.

11. Mulkchilik shaklidan qat’iy nazar korxona, muassasa va tashkilot raxbarlari majburiy texnik ko‘rik boshlanishidan kamida 10 kun oldin viloyat Yo‘l Harakati Havfsizligi hizmati boshqarmasining tumanlararo ro‘yxatlash va imtihon olish bo‘linmasiga (TRIB) mavjud transport vositalari haqidagi ma’lumotlarni taqqoslash uchun taqdim etilsin.

12. Yil yakuni bo‘yicha texnik ko‘rikka taqdim etilmagan avtomototransport vositalari ro‘yxati yilining 01 noyabrigacha elektron va bosma shakllarda shakillantirilib, Boshqarma texnika nazorat bo‘limiga taqdim etilsin.

13. Oxirgi uch yil davomida majburiy texnik ko‘rikka taqdim etilmagan avtomototransport vositalarining tasdiqlangan ro‘yxatiga asosan avtomototransport vositalari egalarining turar joy manzili bo‘yicha, fuqarolarning turar joy daxlsizligini buzmagan holda, ularning roziligi bilan inventarizatsiyadan o‘tkazilishini ta’minlansin va yaroqsiz deb hisoblangan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30 martdagi 272-sonli “Transport vositalarini majburiy tarzda texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan ro‘yxatdan chiqarish ishlari amalga oshirilsin.

12. “Sug‘urta” kompaniyalari bo‘limiga, Tuman ichki ishlar bo‘limi - “Yo’l xarakati xavfsizligi bo‘linmasi” (A.R.Pirdavlatov) bilan hamkorlikda majburiy transport vositasi sug‘urtasi to‘lovlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda undirish choralarini ko‘rsin.

13. Tuman “Yuqori Chirchiq hayoti” gazetasi (X.Uralova)ga**:**

transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish yo‘l harakati havfsizligini ta’minlashning asosiy garovi ekanligini targ‘ib qilib borish tavsiya etilsin.

14. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

15. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Xudoyberganov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **U.Atemov**

Yuqorichirchiq tuman hokimining
2022 yil 9 dekabrdagi
422-10-145-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Yuqori Chirchiq tumani
hokimi qaroriga

1-ilova

Yuqori Chirchiq tumani xo‘jalik, korxona va tashkilotlardagi avtotransport vositalarini 2023 yilgi texnik ko‘rigidan o‘tkazish bo‘yicha komissiya

T A R K I B I:

A.R.Pirdavlatov Komissiya raisi, TIIB YXXB boshlig‘i

A ‘ Z O L A R I:

1. B.Narimbaev _____ Tuman “Vatanparvar” MKT rahbari

2. A.Mustaqulov _____ Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i

3. D.Yusmenov _____ Tuman YXPTFK boshligi

4. M.Payziev _____ Tuman “Agrosug‘urta” menendjeri

5.Sh.Ibragimov _____Tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi davlat noziri

6. M.Batirbekov _____ Avtomotoxavoskorlar kungili jamiyati raisi

Yuqorichirchiq tuman hokimining
2022 yil 9 dekabrdagi
422-10-145-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Yuqori Chirchiq tuman
hokimi qaroriga

2-ilova

Yuqori Chirchiq tumani xo‘jalik, korxona va tashkilotlarda davlat avtotransport vositalarini 2023 yilgi texnik ko‘rikdan o‘tkazish

J A D V A L I

№	Korxona, tashkilot va muassasa nomi	Korxona, tashkilot va muassasadagi transport vositalari soni	Texnik ko‘rikdan o‘tkazish sanasi	Texnik ko‘rikdan o‘tkazish vaqti	Texnik ko‘rikdan o‘tkaziladigan joy
1	Yangibozor pochta aloqa	1 ta	10.02.2022	09-00	korxona
2	OOO BOBOXON-XOJIAKBAR BARAKA	1 ta	11.02.2022	09-00	korxona
3	Oryol-RoshkaMChJ	1 ta	13.02.2022	09-00	korxona
4	Munavvarbiznessavdo MChJ	2 ta	14.02.2022	09-00	korxona
5	BEHRUZ-BILOL DX	1 ta	18.02.2022	09-00	korxona
6	YakubjonBarokat x	5 ta	20.02.2022	09-00	korxona
7	BIG GOGOLD BUSINESS	6 ta	21.02.2022	09-00	korxona
8	OOO ELIT ROTO DLAST	4 ta	25.02.2022	09-00	korxona
9	BEAVTX CLASS DECOR	5 ta	26.02.2022	09-00	korxona
10	OOO IMRAN ELITE GROUP	5 ta	28.02.2022	09-00	korxona
11	QUNDUZ-A HK	6 ta	02.03.2022	09-00	korxona
12	OOO MOS BIZNES	4 ta	04.03.2022	09-00	korxona
13	ALF GRAND CORPORATION	2 ta	05.03.2022	09-00	korxona
14	Osman-Ali-Nasib	2 ta	07.03.2022	09-00	korxona
15	Yukorichirchixayotired-yasi	1 ta	08.03.2022	09-00	korxona
16	Ga VIDA PHARM HK	1 ta	09.03.2022	09-00	korxona
17	TashkentUpakovshik	2 ta	10.03.2022	09-00	korxona
18	Imron -ServisPlyus MCHJ	1 ta	11.03.2022	09-00	korxona
19	ABDUSERIK ZULAYHO SAVDO MCHJ	2 ta	12.03.2022	09-00	korxona
20	OOO BETA	6 ta	13.03.2022	09-00	korxona
21	ParrandaSanoatBaraka FX	2 ta	14.03.2022	09-00	korxona
22	FX Maxmudbek	2 ta	16.03.2022	09-00	korxona
23	Yu.chirchiktumkishlokvasuvxujaligi		17.03.2022	09-00	korxona
24	Yashnobod AGRO MChJ	2 ta	18.03.2022	09-00	korxona
25	OOO SPERTS POLINER MONTAJ SAHATSIYA	13 ta	01.04.2022	09-00	korxona
26	MChJ PANEL CONSTRUKTIONS	9	01.04.2022	09-00	korxona
27	OOO SANTEXMONTALQURILISH	2	01.04.2022	09-00	korxona
28	TEXNOINVEST-ST OOO	20	2.04.2022	09-00	korxona
29	BARDANKOL FAYZ BARAKA	7	3.04.2022	09-00	korxona
30	Yukorichirchik DSENM	2	4.04.2022	09-00	korxona
31	MCHJ TVIL FOREVER	3	5.04.2022	09-00	korxona

32	Yujnaya Koreyskogo mejdunarodnogo Fonda zdrovooxraneniya Doktora Li Djoni	3	5.04.2022	09-00	korxona
33	LOCHIN TRANS YOG MCHJ	10	5.04.2022	09-00	korxona
34	OOO ZOIRXOJA TRANS	4	7.04.2022	09-00	korxona
35	Yu.chirchiktumyullardanfoydalanishunitarkor	1	10.04.2022	09-00	korxona
36	SP OOO YUQORICHICHIQ METAL INVEST	2	11.04.2022	09-00	korxona
37	Bardankul YFU UK	31	12.04.2022	09-00	korxona
38	SEMANDER-TADBIRKOR XF	1	12.04.2022	09-00	korxona
39	VatanparvarYu.chirchik	10	13.04.2022	09-00	korxona
40	XTINF INJENERING	2	14.04.2022	09-00	korxona
41	MCHJ GREEN TIME	2	16.04.2022	09-00	korxona
42	TANO F/X	36	17.04.2022	09-00	korxona
43	OOO KORTEXSOCKS	2	18.04.2022	09-00	korxona
44	MCHJ ORIGINAL FGORA SERVIS	2	19.04.2022	09-00	korxona
45	MCHJ DARXON SERVIS	1	20.04.2022	09-00	korxona
46	Yu.chirchik TETK	8	20.04.2022	09-00	korxona
47	MCHJ ORZU UMID MAQSAD	3	20.04.2022	09-00	korxona
48	OOO KERAMIK IMPERS	5	21.04.2022	09-00	korxona
49	MCHJ JUMABOZOR YOLOVCHI TRANS	5	21.04.2022	09-00	korxona
50	JumabozorTransServis	17	22.04.2022	09-00	korxona
51	KAMOLOV MIRODIL FX	2	23.04.2022	09-00	korxona
52	Uzsanoatkurilish Bank ATB bosh offis	11	24.04.2022	09-00	korxona
53	Yu.chirchiktum irrigatsiya bulimi	1	25.04.2022	09-00	korxona
54	MCHJ TEXNO-PROGRESS PARRANDA	5	26.04.2022	09-00	korxona
55	Agrobank ATB Yuchirchikfiliali	1	27.04.2022	09-00	korxona
56	Toshkent vil IIB kuriklashboshkarmasi	6	28.04.2022	09-00	korxona
57	Toshkentvil tozaxudud DUK	10	01.05.2022	09-00	korxona
58	MCHJ MOBILE BETON SERVISE	27	2.05.2022	09-00	korxona
59	Obodonoashtirishboshkarmasi	8	3.05.2022	09-00	korxona
60	JUMABOZOR AVTOSOZ MCHJ	5	6.05.2022	09-00	korxona
61	AvtoshogirdAsida MChJ	10	7.05.2022	09-00	korxona
62	AvtomotoxavaskorlarIykotabulimi	6	8.05.2022	09-00	korxona
63	NIHOL PARRANDA BIXNES OOO	2	9.05.2022	09-00	korxona
64	JumabozoromadNurislom MCHJ	1	10.05.2022	09-00	korxona
65	UNIVERSAL ROHAT BUILD	4	11.05.2022	09-00	korxona
66	4F MEROS-2	2	12.05.2022	09-00	korxona
67	OOO ELITO DOORS	3	13.05.2022	09-00	korxona
68	MCHJ INDIRA	2	14.05.2022	09-00	korxona
69	XF SHAMS	3	15.05.2022	09-00	korxona
70	MirziyodShirinOlmalari	3	16.05.2022	09-00	korxona
71	MCHJ MUSAFFO ZILOL SERVIS	4	19.05.2022	09-00	korxona
72	OOO ERGASH OTA AT	6	20.05.2022	09-00	korxona
73	ATB AGROBANK Yu.chirchik fil	3	21.05.2022	09-00	korxona
74	Maxsusuyjoykurilishboshkarmasi	3	01.06.2022	09-00	korxona
75	ToshviEndokrinologiyadisponseri	2	01.06.2022	09-00	korxona
76	Toshvilyolsanoat SK	25	01.06.2022	09-00	korxona
77	OOO TEXNO TKAN TEXSTIL	2	2.06.2022	09-00	korxona
78	TEXENERGO TRANS MCHJ	2	3.06.2022	09-00	korxona
79	STNS-DVIGATEL	8	3.06.2022	09-00	korxona
80	FX XILOLIDDIN	2	3.06.2022	09-00	korxona
81	MCHJ UZGERMED PHARM OK	4	4.06.2022	09-00	korxona
82	Niyoz-Dexqon FX	2	4.06.2022	09-00	korxona
83	Yu.chirtum. Davl Veterinariya bulimi	2	5.06.2022	09-00	korxona
84	FAZY AGRO SANOAT OOO	2	5.06.2022	09-00	korxona
85	MChJ 121-sonli Yangibozoravtokorxonasi	99	5.06.2022	09-00	korxona
86	MChJ BEST CHICKEN MAET	2	6.06.2022	09-00	korxona

87	STATUS VIKTORIYA MCHJ	1	7.06.2022	09-00	korxona
88	TOSHKENT BIZNES SISTEM XK	5	7.06.2022	09-00	korxona
89	OOO IZOELEKS-KDOVGI	2	8.06.2022	09-00	korxona
90	KOMILJON-GOZILJON MChJ	1	8.06.2022	09-00	korxona
91	IMKON MAKS INVEST MCHJ	2	08.06.2022	09-00	korxona
92	OOO MEGASTROY PLYuS	2	9.06.2022	09-00	korxona
93	ROM TASH-GISHT SERVIS MCHJ	1	9.06.2022	09-00	korxona
94	MCHJ SHUXRAT SHODLIK SAVDO	5	10.06.2022	09-00	korxona
95	OOO EXSPRESS STROY	1	10.06.2022	09-00	korxona
96	ChF MORSKOY BEREG	1	10.06.2022	09-00	korxona
97	YASIN INVEST COLLECTION MCHJ	1	11.06.2022	09-00	korxona
98	OOO XLEBNЬIY STOL	1	11.06.2022	09-00	korxona
99	ChP GOLD STONES	3	12.06.2022	09-00	korxona
100	ELCHINBEK-LOCHINBEK-SAVDO MCHJ	2	12.06.2022	09-00	korxona
101	ALAMA-IMPEKS MCHJ	1	13.06.2022	09-00	korxona
102	MCHJ MED STANDARD GLASS	1	14.06.2022	09-00	korxona
103	OOO BEG ORDA BIZNES	1	15.06.2022	09-00	korxona
104	DostonBunyodkorBaraka MChJ	7	16.06.2022	09-00	korxona
105	MCHJ THE BEST PRODUCT	3	16.06.2022	09-00	korxona
106	Mega White Parranda MCHJ	1	17.06.2022	09-00	korxona
107	MChJ Saken-NurkensavdoFayz	1	17.06.2022	09-00	korxona
108	FULL HOUSE MCHJ	2	18.06.2022	09-00	korxona
109	Akbar-Anvar Trans MChJ	8	18.06.2022	09-00	korxona
110	ChP PROFENERGY EXPERT	3	20.06.2022	09-00	korxona
111	ECO AGROPRODUCT FX	5	21.06.2022	09-00	korxona
112	OOO BEATY-GLASS DECOR	5	21.06.2022	09-00	korxona
113	Yu.chirchikkurilishva servis kasbxunar kolleji	4	21.06.2022	09-00	korxona
114	MCHJ BSM AGRO GROUP	1	22.06.2022	09-00	korxona
115	Yu.chirchikDavsuvmaxsuspudrat DUK	10	22.06.2022	09-00	korxona
116	MCHJ TOJIDDIN SUV LOYIHA	2	23.06.2022	09-00	korxona
117	Agroinnovatsiya DUK	5	23.06.2022	09-00	korxona
118	OOO BULOQ SAVDO OMAD	1	24.06.2022	09-00	korxona
119	Standart Story Servis Optima MCHJ	4	26.06.2022	09-00	korxona
120	OOO NATALI FOOD	2	27.06.2022	09-00	korxona
121	Yuqorichirchiq tuman hokimyati	8	27.06.2022	09-00	korxona
122	Yangig`isht servis MCHJ	9	27.06.2022	09-00	korxona
123	UYa	4	27.09.2022	09-00	korxona
124	Bardanko`l Avtoyo`l	32	27.09.2022	09-00	korxona